

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI  
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.  
ILMIY  
XABARLAR**

1995-yildan nashr etiladi  
Yilda 6 marta chiqadi

**2024/3--SON  
ILOVA TO'PLAM**


**НАУЧНЫЙ  
ВЕСТНИК.  
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года  
Выходит 6 раз в год

<b>A.Xojimatov</b>	
Globalashuv sharoitida musiqiy qadriyatlarining estetik ta'sirchanligining o'zgarib borishi va qadrsizlanishi jarayoni.....	442
<b>B.S.Sobirov</b>	
Aktorlik faoliyatini shakllantirishda aktyorlik san'ati xususiyatlari .....	448
<b>D.A.Yuldasheva</b>	
Yangi O'zbekiston sharoitida madaniyat va san'at sohasi rivojining takomillashuvi .....	451
<b>I.I.Qirg'izov</b>	
Nomoddiy madaniy meros tarkibiga kirgan shashmaqom janriga aksiologik munosabatning yuksalishi .....	455
<b>I.T.Yuldashev</b>	
Jamiyat ma'naviy yangilanishi jarayonida miniatyura san'atining o'rni va ahamiyati .....	459
<b>L.E.Tursunova</b>	
Yangi O'zbekistonda yoshlar estetik madaniyatini milliy musiqa tarbiyasi asosida rivojlantirish vazifalari .....	462
<b>M.Achildiyeva</b>	
O'zbek musiqa san'ati rivojining tarixiy takomil bosqichlari va yo'llari .....	468
<b>N.X.Djalalova</b>	
Musiqiy madaniyat-yoshlar estetik tafakkurini yuksaltirishda muhim omillardan biri sifatida ....	473
<b>N.R.Mansurova</b>	
Raqamli texnologiyalar vositasida talabalarda milliy musiqiy merosni asrashga doir bilimlarini rivojlantirishning texnologik asoslari .....	478
<b>O.R.Soliyev</b>	
Barokko davrida san'atning o'ziga xosligi .....	488
<b>R.A.Orziboyev</b>	
Milliy musiqamizga doir Markaziy Osiyo mutafakkirlarining asarlari tahlili .....	491
<b>R.J.Soxibov</b>	
Naqqoshlikda kompozitsiya va uning qo'llanilishi .....	495
<b>A.B.Sulaymanova</b>	
The importance of modern innovative pedagogical technologies in teaching engineering graphics .....	500
<b>U.T.Isakov</b>	
O'zbek xalqi musiqa madaniyatining milliy va umuminsoniy qadriyatlar bilan o'zaro aloqadorligi .....	503
<b>Z.A.Boboyeva</b>	
Yoshlarning badiiy tasavvuri va ijodkorlik qobiliyatlarini rivojlantirishda tasviriy san'atning o'rni .....	508
<b>J.Sh.Muydinov</b>	
O'quvchilar ma'naviy dunyoqarashini shakllantirishda musiqa mashg'ulotlarining ahamiyati .....	511
<b>N.M.Madaminov</b>	
Oliy ta'lim tizimida bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilarining kasbiy kompetentsiyasini rivojlantirishning ahamiyati .....	515
<b>M.T.Yunusaliyev</b>	
Akvarel texnikasida noan'anaviy yondashuv .....	518
<b>D.Q.Oxunova, S.Sh.Hakimova</b>	
Bo'lajak o'qituvchilarda kasbiy bilimlarni kognitiv idrok etish kompetensiyalarini rivojlantirishning zamonaviy texnologiya va metodlari .....	524
<b>D.K.Rafikova</b>	
O'quvchilarni kasbga yo'naltrishning pedagogik zaruriyati.....	528
<b>S.H.Mamajonov</b>	
Amir Temur mohir strategik.....	533
<b>D.M.Xolikova</b>	
Talabalarda innovatsion fikrlash ko'nikmalarini takomillashtirishning pedagogik-psixologik xususiyatlari .....	536
<b>O.S.Usmonova</b>	
1-sinf o'quvchilarini mnemotexnika yordamida chiroyli yozishga o'rgatish .....	544



UO'K: 374.26.370.1:681+37.377

**BO'LAJAK O'QITUVCHILARDA KASBIY BILIMLARNI KOGNITIV IDROK ETISH  
KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISHNING ZAMONAVIY TEXNOLOGIYA VA  
METODLARI****СОВРЕМЕННЫЕ ТЕХНОЛОГИИ И МЕТОДЫ РАЗВИТИЯ КОМПЕТЕНЦИЙ  
ПОЗНАВАТЕЛЬНОГО ВОСПРИЯТИЯ ПРОФЕССИОНАЛЬНЫХ ЗНАНИЙ У БУДУЩИХ  
УЧИТЕЛЕЙ****MODERN TECHNOLOGIES AND METHODS FOR DEVELOPING COMPETENCIES OF  
COGNITIVE PERCEPTION OF PROFESSIONAL KNOWLEDGE IN FUTURE TEACHERS****Oxunova Dilnoza Qaxxorjonovna**   
Farg'ona davlat universiteti o'qituvchi**Hakimova Sarvinoz Sharifjon Qizi**  
Farg'ona davlat universiteti talaba**Annotatsiya**

Kasbiy bilimlar insoning faoliyatini tashkil etishida tayanch asos bo'lib xizmat qiladi. Kognitiv idrok etish natijasida bo'lajak mutaxassislarda kasbiy ijodkorlik va kasbiy faollik rivojlanadi. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risidagi" Qonuni va "O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi"da bo'lajak mutaxassislarining kasbiy bilimlarini tizimli o'zlashtirish va o'z faoliyatlarida qo'llash kompetensiyalarini shakllantirishga alohida e'tibor qaratilgan. Bo'lajak o'qituvchining kognitivligini rivojlanishga yo'naltirilgan pedagogik nazariyalar yangi bilimlarni izlab topish, o'z amaliy faoliyatida qo'llash va ularni kasbiy kompetensiyaga aylantirishga oid faoliyatni takomillashtirishni nazarada tutadi. Bo'lajak pedagoglarning kognitivligi o'quvchilarning mustaqilligi, o'quv jarayoniga qiziqishlarini ta'minlash ularni bilim olish motivatsiyasini shakllantirish mexnizmlarini qo'llay olishida namoyon bo'ladi. Ushbu maqolada bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy bilimlarni kognitiv faollik asosida o'zlashtirish metodlari va ularning kasbiy faoliyatdagi o'rni, kasbiy bilimlarni rivojlantirishning texnologiyalari ochib berilgan.

**Аннотация**

Профессиональные знания служат основой организации деятельности человека. В результате познавательного восприятия у будущих специалистов развивается профессиональное творчество и профессиональная активность. Согласно Закону Республики Узбекистан «Об образовании» и «Концертации по развитию системы высшего образования Республики Узбекистан до 2030 года», профессиональные знания будущих специалистов будут систематически осваиваться и применяться в их деятельности. особое внимание уделяется формированию компетенций. Педагогические теории, направленные на развитие познавательного развития будущего студента, учитывают совершенствование деятельности, связанной с поиском новых знаний, применением их в своей практической деятельности и превращением их в профессиональную компетентность. Познавательные способности будущих редакторов отражаются в их умении использовать механизмы формирования мотивации к обучению, обеспечивая самостоятельность и интерес студентов к учебному процессу. В данной статье описаны методы овладения профессиональными знаниями будущих учителей на основе познавательной деятельности и их место в профессиональной деятельности, технологии развития профессиональных знаний.

**Abstract**

Professional knowledge serves as the basis for organizing human activity. As a result of cognitive perception, future specialists develop professional creativity and professional activity. According to the Law of the Republic of Uzbekistan "On Education" and the "Concertation on the development of the higher education system of the Republic of Uzbekistan until 2030", the professional knowledge of future specialists will be systematically mastered and applied in their activities: special attention is paid to the formation of competencies. Pedagogical theories aimed at developing the cognitive development of the future student take into account the improvement of activities associated with the search for new knowledge, applying them in their practical activities and turning them into professional competence. The cognitive abilities of future editors are reflected in their ability to use mechanisms for developing motivation for learning, ensuring students' independence and interest in the learning process. This article describes methods of mastering the professional knowledge of future teachers on the basis of cognitive activity and their place in professional activity, technologies for the development of professional knowledge.



## PEDAGOGIKA

**Kalit so'zlar:** pedagogik texnologiya, kognitiv faoliyat, intellektual, motiv, kasbiy bilimlar, qobiliyat, dasturiy ta'lim, loyihalash, modellashtirish.

**Ключевые слова:** педагогическая технология, познавательная деятельность, интеллектуальная, мотивация, профессиональные знания, способности, программное образование, проектирование, моделирование.

**Key words:** educational technology, cognitive activity, intellectual, motivation, professional knowledge, abilities, software education, design, modeling.

## KIRISH

Bo'lajak o'qituvchilarda kasbiy bilimlarni kognitiv idrok etish kompetensiyasini shakllantirishda muayyan usul va metodlar alohida o'rin tutadi. Ular talabalarni ishontirish, isbotlangan natijalarni ifodalovchi dalillarga tayanish, bevosita va bilvosita ta'sir ko'rsatish, o'zaro ta'sir metodlari kabilarni o'z ichiga oladi.

Pedagogik texnologiyalar bo'lajak o'qituvchilarga o'quv jarayonini to'liq tasavvur etish imkonini beradi. Chunki unda ta'lim jarayonining to'liq manzarasi uning maqsadlari, mazmuni, shakllari, vositalari, usullari, metodlari, kafolatlangan natijasi o'qituvchi va o'quvchilar faoliyatini yaxlit tarzda qamrab oladi. Mazkur komponentlar o'zaro aloqador bo'lib o'quv jarayonining yaxlit butunligini ifodalaydi. Umumiy o'rta ta'lim tizimida amalga oshiriladigan o'quv jarayoni quyidagi talablarga muvofiq tarzda tashkil etilganda bo'lajak o'qituvchilarda aniq tasavvur hosil bo'lishi mumkin [5].

1. O'quvchilarda bilish, o'qib o'rganish, rivojlanish, ijtimoiylashish ehtiyojining mavjudligi;
2. O'quvchilarda turli fanlarga oid bilimlar va ma'naviy, madaniy, axloqiy rivojlanish motivlarining shakllanganligi;
3. O'quv jarayonining mazmuni ijtimoiy buyurtmadan kelib chiqishi hamda umummilliy dastur va davlat ta'lim standartlari talablari doirasida belgilab berilishi;
4. Pedagogik jarayonni tashkil etishda didaktik omillarga ustuvorlik berilishini hisobga olish.

## ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Rivojlantiruvchi hamda kognitiv xarakterdagi ta'lim texnologiyalari o'quvchilarni har tomonlama rivojlantirishga xizmat qiladi. O'quvchilarda mustaqillik, tashabbuskorlik, mas'uliyatlilik, tanqidiy, kreativ fikrlash kabilar shaxsga yo'naltirilgan ta'lim texnologiyalari yordamida shakllantiriladi. Bunda o'quvchilarning o'quv tarbiya jarayonidagi mustaqilligini ta'minlashga alohida e'tibor qaratiladi [1]. Chunki o'quvchilar har doim o'z imkoniyatlarini namoyon qilishga intiladi. Buning uchun bo'lajak o'qituvchilar o'quvchining imkoniyatlarini faoliyatli yondashuv asosida ro'yobga chiqarish mumkinligi haqidagi pedagogik bilimlarga ega bo'lishlari lozim. O'quv jarayonidagi barcha elementlar, birinchi navbatda, o'quvchilarni intellektual, ma'naviy-axloqiy, madaniy, jismoniy, estetik jihatdan rivojlantirishga xizmat qilishi nazarda tutiladi. Buning uchun o'quvchilarni xalqning ko'p asrlik ijtimoiy tajribasi, intellektual, ma'naviy, madaniy boyliklari va eng zarur zamonaviy bilimlar, fan-texnika, adabiyot va san'at yutuqlari bilan yaqindan tanishtirishga e'tibor qaratiladi.

O'quvchilar o'quv materiallarining mazmun-mohiyatini to'liq anglagan holda ularni o'zlashtira olmasalar, ularning intellektual hamda kognitiv sohalari yetarlicha rivojlanmaydi. Shuning uchun ham ta'lim mazmuni o'quvchilarni rivojlantirishda asosiy vosita hisoblanishini bo'lajak o'qituvchilar anglab yetishlariga alohida e'tibor qaratish oliy pedagogik ta'lim jarayonining asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi. Pedagogika turkum fanlari ayniqsa, didaktika va metodika oid mavzularni o'rganish jarayonida bo'lajak o'qituvchilarning ta'lim mazmuniga oid bilimlarni chuqurlashtirishga alohida e'tibor qaratish talab etiladi.

Talabalar o'quv jarayonida qo'llaniladigan pedagogik texnologiyalar o'ziga xos jihatlari bilan farqlanishini anglab yetishlari uchun didaktikaga oid mavzularni o'tishda shaxsga yo'naltirilgan texnologiyalarni qo'llashga alohida e'tibor qaratiladi. Bunda mashg'ulotlarning asosiy maqsadi bo'lajak o'qituvchilarning pedagogik tafakkurini boyitish, ularning metodik mahoratini oshirishdan iborat. Bunday mashg'ulotlarda ta'lim mazmunini o'qitish metodlari va texnologiyalariga oid bilimlar talabalarga tizimli tarzda taqdim etiladi. Talabalarning birgalikdagi izlanishlari zarur pedagogik bilimlarni izlab topish va kognitiv idrok etishlarini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Bunday bilimlarni o'quvchilar va bo'lajak o'qituvchilarning hamkorlikdagi kreativ faoliyatlarini tashkil etish, evristik faollik ko'rsatish, mustaqil izlanish, o'zaro dialogga kirishishga undash imkoniyatlarini



kengaytiradi. O'qituvchilar tomonidan bilish usullarini mustaqil tanlash, o'quvchilarning bilish faolliklarini rag'batlantirish, ularni qo'llab-quvvatlash kabi pedagogik faoliyat turlari amalga oshiriladi. Uni talabalar mashg'ulotlar jarayonida anglab yetadilar. Bunday mashg'ulotlarda bo'lajak o'qituvchilar o'zlashtirgan bilimlardagi bo'shliqlarni aniqlash, ularni bartaraf etish yo'llarini izlash, buning uchun mustaqil bilim olishga intilish zarurligini anglab yetadilar.

So'nggi yillarda bo'lajak o'qituvchilarning diagnostik metodikalarini o'zlashtirishlariga alohida e'tibor qaratilmoqda. Pedagogik diagnostika– pedagogik jarayonning umumiy holatini nazorat qilish demakdir. Pedagogik diagnostika pedagogik jarayonning psixologik, subyektiv xususiyatlarini inobatga olish asosida amalga oshiriladi [2]. Diagnostik tekshiruvlar o'quvchilarning o'quv faoliyati, shaxsiy rivojlanishi yoki uning o'ziga xos ko'rinishlarini qamrab oladi. Diagnostika metodlari o'quvchilarning o'zlashtirish darajalarini tezkor yoki davomli tekshirishga mo'lajallanganligi bilan ajralib turadi. Chunoschi:

1. Tezkor tekshirishga mo'ljallangan diagnostika o'quvchi yoki o'quvchilar jamoasining o'quv yoki tarbiyaviy faoliyati natijalarini tezkor nazorat qilishni ta'minlaydi;

2. Davomli diagnostika o'quv jarayonining umumiy holati, o'quvchilarning yutuq va kamchiliklarini aniqlash, o'quvchilarning umumiy hamda individual xususiyatlari va o'quv jarayonining natijalarini izchil tarzda muntazam nazorat qilish imkonini beradi.

Diagnostik tekshirishlar ta'lim maqsadi va natijalarga erishishni jadallashtiradi. U ta'limning maqsad va vazifalariga qay darajada erishilganligini aniqlash va baholashga ko'maklashadi. Bo'lajak o'qituvchilarda pedagogik diagnostika asosida o'quvchi shaxsini har tomonlama bilish, sinf jamoasining xususiyatlarini o'rganish, aniq pedagogik vaziyatlarda ma'lumotlarni tahlil etish kabi ko'nikmalarni shakllantirish imkonini beradi. Pedagogik diagnostikaga asoslangan holda o'quv jarayonidagi bo'shliqlar aniqlanib, unga tuzatishlar kiritish haqidagi pedagogik tasavvurlari kengayadi. Bo'lajak o'qituvchilarning interfaol topshiriqlar haqidagi bilimlarini boyitish ham ularning kasbiy kompetensiyalarini takomillashtirishda muhim ahamiyatga ega.

Interfaol mashg'ulotlarda talabalarning o'qish-o'rganish harakatlarini faollashtirishga xizmat qiladigan evristik mashq va topshiriqlardan foydalaniladi. Bunday mashqlarni bo'lajak o'qituvchilar mustaqil tarzda bajaradilar. Mazkur mashqlarni bajarish jarayonida bo'lajak o'qituvchilar evristik izlanishlarni amalga oshiradilar, natijada ularning bilish faoliyatlari va pedagogik bilimlari rivojlanadi, shu bilan bir qatorda bunday mashqlarni bajarishga oid intellektual ko'nikmalar va bilish kompetensiyalari shakllanadi, natijada bo'lajak o'qituvchilarda kommunikativ hamda egallangan bilimlarni amaliyotga tatbiq etish kompetensiyasi rivojlanadi. Kasbiy mobillik, hozirjavoblik, pedagogik bilimlarni generatsiyalash kabi kasbiy sifatlar tarkib topadi. Shu bilan bir qatorda bo'lajak o'qituvchilarda istiqboldagi kasbiy faoliyatida interfaol metodlaridan foydalanish kompetensiyasi ham shakllantiriladi [3]. Bunda bo'lajak o'qituvchilar quyidagi yo'nalishlarda kasbiy ko'nikmalarga ega bo'ladilar:

1. O'quvchilarni ijodiy topshiriqlar ustida ishlashga undash;

2. O'quvchilarning kichik guruhlarida ishlash;

3. Ta'limiy, immititsion, ishchan, rolli o'yinlardan o'quv jarayonida samarali foydalanish;

4. O'quvchilar bilan muayyan mavzularda bahs-munozaralar tashkil etish, ekskursiya darslarini o'tkazish, muammoli vaziyatlar yaratish, aniq muammolarni birgalikda hal qilish;

5. Hamkorlikdagi pedagogik jarayonlarni sinf soatlarini loyihalash;

6. O'quvchilar bilan turli tanlovlar o'tkazish va boshqalar.

Natijada bo'lajak o'qituvchilar yuqori darajadagi pedagogik muloqot kompetensiyasiga ega bo'ladilar.

Umumiy o'rta ta'lim tizimini yangi paradigma asosida tashkil etish uchun bo'lajak o'qituvchilarda kasbiy kompetensiyalarni tizimli tarzda shakllantirish muhim ahamiyatga ega. Bo'lajak o'qituvchilarda kasbiy kompetensiyalarini shakllantirish istiqbolda umumiy o'rta ta'lim jarayonini Yevropa darajalari bilan integratsiyalashuvini ta'minlaydi. Shuning uchun ham oliy pedagogik ta'lim jarayonini kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan xalqaro standartlar negizida tashkil etish zaruriyati kuchaymoqda.

### NATIJA VA MUHOKAMA

Bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy bilimlarni kognitiv idrok etish kompetensiyalarni shakllantirishga yo'naltirilgan amaliy mashg'ulotlarda ishchan o'yinlar muhim ahamiyatga ega. Bunday o'yinlar bo'lajak o'qituvchilarda pedagogik faoliyat motivlarini shakllantiradi. Ularda nazariy tafakkur amaliy faollik, kasbiy motivlar, bilimlarni kognitiv idrok etish kompetensiyalari tizimli tarzda



## PEDAGOGIKA

shakllanadi. Mazkur o'yinlar jarayonida bo'lajak o'qituvchilar vujudga kelgan pedagogik vaziyatlarni tahlil qilib, muammolarni tarkibiy qismlarga ajratgan holda o'rganishga kirishadilar, ular turli muammolarga yechim topish usullarini izlab topishga muvaffaq bo'ladilar, pedagogik faoliyatga mos keladigan kasbiy harakatlarni bajarishga kirishadilar, olingan natijalarni tahlil qilish asosida aniqlangan bo'shliqlarga tuzatishlar kiritadilar. Shu asnoda ular pedagogik korreksiyaga oid ko'nikmalarni egallaydilar.

Professor-o'qituvchilar ijodiy xarakterdagi ishchan o'yinlarni tashkil etish jarayonida kontekstli yondashuv texnologiyasidan foydalanib, bo'lajak o'qituvchilarning o'zlashtirilgan kasbiy bilimlari va amaliy tajribalarni uyg'unlashtirishga muvaffaq bo'ladilar. Natijada kasbiy bilimlarni kognitiv idrok etish kompetensiyalari tizimli tarzda shakllanadi. Shunga ko'ra kontekstli o'qitish texnologiyalari bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy bilimlarni kognitiv idrok etish kompetensiyalarini shakllantirishda yetakchi ta'lim texnologiyasi sifatida namoyon bo'adi [4].

**XULOSA**

1. Bo'lajak o'qituvchilarda kasbiy bilimlarni kognitiv idrok etish kompetensiyasini shakllantirishda muayyan usul, metod va texnologiyalardan tizimli tarzda foydalanish ushbu sohada kafolatlangan natijaga erishish imkonini beradi.

2. Umumiy o'rta ta'lim sohasidagi islohotlar yangi sifat bosqichiga ko'tarilgan bir sharoitda bo'lajak o'qituvchilarda kasbiy bilimlarni kognitiv idrok etish kompetensiyasini tizimli tarzda shakllantirish natijasida kreativ faoliyat tajribasini o'zlashtirish, o'quv jarayoniga innovatsion metod va texnologiyalarini tatbiq etish kabi sifatlarni tarkib toptirish kabi kompleks xarakterdagi maqsadlarga yetish imkoni paydo bo'ladi.

3. Bo'lajak o'qituvchilarda kasbiy bilimlarni kognitiv idrok etish kompetensiyasini shakllantirish jarayonini samarali didaktik loyihalar, pedagogik shakllar, vositalar, metodlar bilan boyitish va talabalarning mustaqil bilim olishlari, o'z-o'zlarini rivojlantirishlari uchun shart-sharoitlar yaratish orqali kasbiy pedagogik ta'limning sifatini ta'minlash imkoniyatlari kengayadi.

4. Bo'lajak o'qituvchilarda kasbiy bilimlarni kognitiv idrok etish kompetensiyasini shakllantirish umummilliy dastur, davlat ta'lim standartlari talablari asosida amalga oshirilishiga oid pedagogik yondashuvlar va strategiyalarni ishlab chiqish zaruriyati har qachongidan ham dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

5. Bo'lajak o'qituvchilarda o'quvchilar bilan amalga oshiriladigan hamkorlikka kirishish, faol muloqot o'rnatish, ularni tushunish va tolerant munosabatda bo'lish, o'quv jarayonini samarali loyihalash, o'quv maqsadlari taksonomiyasiga oid kasbiy bilimlarni boyitish va ushbu omillar oliy pedagogik ta'lim jarayonida ustuvor ahamiyat kasb etishiga kuchli ehtiyoj sezilmoqda.

Bo'lajak o'qituvchilarda kasbiy bilimlarni kognitiv idrok etish kompetensiyasini shakllantirish jarayoniga kognitiv hamda rivojlantiruvchi ta'lim texnologiyalarini tatbiq qilish orqali kasbiy mahorat – akmega intilish sifatlarni tarkib toptirish, kasbiy ehtiyojga aylanishini ta'minlashga oid pedagogik faoliyatga talab ortib bormoqda.

**ADABIYOTLAR RO'YXATI**

1. Ahrorova Z. O'qitishning yangicha usullari. Ta'lim va tarbiya, 2003-yil 3-4-sonlari.
2. Сафарова Р. ва Ъ. Уқувчиларда ўзаро дўстона муносабатларга асосланиб ҳамкорликда фаолият кўрсатиш кўникмаларини шакллантириш жараёнини ташкил этиш тамойиллари ва параметрлари \ Монография. – Тошкент: "Fan va texnologiya", 2013. 13 б.т.
3. Хошимов К. Ўзбек педагогикаси антологияси. Тўлдирилган ва қайта ишланган 2-нашри. – Т.: «O'qituvchi» НМИУ, 2010. - 424 бет
4. Kahhorjonovna, O. D. (2022). Approaches to Preparing Future Teachers for the Organization of Cognitive Processes in General Secondary Schools. *Miasto Przyszłości*, 29, 6-7.
5. Kahhorjonovna, O. D. (2022). Future Teachers' Specific Characteristics of Development of Cognitive Acceptance of Professional Knowledge. *Miasto Przyszłości*, 29, 1-2.